

# **Monopoliya atamasi, turlicha yondashuvlar va monopol korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi**

Zurapov Ali Utkirovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Monopoliya" atamasiga ko`plab olimlarning bergen talqini, turlicha yondoshuvlari, monopoliya turlari, monopol korxonalar va ularning YIMdagi ulushi dinamkasi va shunga bog'liq asosiy tushunchlar mohiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** monopoliya, monopol boshqaruv tizimi, moliyaviy natijalar

## **The term monopoly, different approaches and the share of monopolistic enterprises in GDP**

Zurapov Ali Utkirovich

Public Security University of Republic of Uzbekistan

**Abstract:** In this article, the interpretation of the term "Monopoly" by many scientists, their different approaches, the types of monopoly, the dynamics of monopolistic enterprises and their share in GDP, and the essence of the related basic concepts are explained.

**Keywords:** monopoly, monopoly management system, financial results

"Monopoliya" atamasiga ko`plab oilmlar turlicha yondoshishgan. Monopoliya to'g'risida qaysi bir olimlar ijobiy, qaysi birlari salbiy. R. Pozner fikricha, "Monopoliya (grekcha "μόνος" - "bir" va "πωλέω" - "sotaman") - bozor tizimida yirik korxonalarining bir va bir necha mahsulot turlarini ishlab chiqarish hamda sotilishini nazorat qilishidir, bu yerda raqobat bo'lmaydi. Monopol korxonalar daromad olishlari aniq, chunki xoridorlar tanlash huquqiga ega emas".


G.C.Bechkanov, G.P.Bechkanovlar fikricha, "Monopoliya - bozor tuzilmasining bir turi bo'lib, unda ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarishning yaqin o'rinosi bo'limganligi sababli yagona sotuvchi hisoblanadi. Monopoliya hukmron bo'lgan bozor - tovarlarning sotishda ko`plab taklif qiluvchi raqobatchilar mavjud bo'lgan raqobatbardosh bozorga mutlaqo ziddir".

Raqobat siyosatining maqsadi sotilgan mahsulotlar narxlarni belgilash mexanizmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishdir.


Ayrim iqtisodchilar monopolianing quyidagi asosiy turlarini ajratadilar: yopiq, ochiq va tabiiy.

Yopiq monopolialarga raqobat darajasi asosan amaldagi huquqiy hujjatlar bilan cheklangan bozorlar kiradi.

“Tabiiy monopoliya” atamasi ko’pincha bitta korporatsiyaga nisbatan qo’llaniladi. Garchi bu atama bozorni juda keng ma’noda tavsiflash mumkin bo’lsa ham.



1.1-rasm. “Monopolija” atamasini quyidagicha tushunchalari



1.2-rasm. Monopolija turlari

Tabiiy monopoliyaga asosan temir yo’l, suv ta’minoti kabi tizimlarni kiritish mumkin.

Davlat (yopiq) monopoliyasi - monopolija bozorining tovar chegaralarini, monopolija (monopolist) subyektini, uning faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish shakllarini, shuningdek, uning vakolatlarini belgilovchi qonunchilik to’siqlari kuchi bilan yaratilgan monopoliyadir.

Ochiq monopolija - raqobatchilar ushbu texnologiyani va ushbu mahsulotni ishlab chiqarishni o’zlashtirgunga qadar bo‘lgan davrda yangi texnologiya yoki mahsulotning yuzaga kelishi natijasida mavjud bo’lgan vaqtinchalik holat.

Ba’zi bir iqtisodchi olimlar monopolianing salbiy tomonlarini gapirsalar, ba’zilari ijobjiy tomonlarini ko’rsatib o’tadilar. Masalan, respublikamizning yetuk iqtisodchi olimi, professor N.Jumayev, “Monopol kompaniyalarni “parchalab”, aktivlarini bozorga olib chiqishimiz kerak. Chunki, monopolist korxona taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga intilmaydi, xodimlarning professionalligini oshirishga mablag’ kiritmaydi” degan fikrni bildiradi.

I.A.Kim fikricha, "Monopoliya - ko'pincha korxonalar iqtisodiyotning holati va bozordagi holatini hisobga olgan holda amalga oshiradigan majburiy choradir".

I.Yu.Tarasovning ta'kidlashicha, "Monopoliya - odatda, yirik biznesning bir vakili hisoblanadi, asosiy soliq to'lovchi va yangi ish o'rnlari yaratuvchisidir. Monopoliyalar davlat budjetini to'ldirishga va muhim ijtimoiy muammoni - aholi bandligini ta'minlashga yordam beradi".

Fikrimizcha, "Monopoliya - raqobatli bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, ishlab chiqaruvchilarning birlashuvi natijasida kapitallarning umumlashuvidir". Bunda bir necha mayda ishlab chiqaruvchilar bozorni egallash uchun yagona maqsadda birlashadilar. Ularning maqsadi, bir necha mayda-mayda mahsulotlarni o'rniga yagona mahsulot turini ishlab chiqarish bilan bozorni egallashdir.

Yuqoridagilaran kelib chiqib, monopol korxonalarining o'ziga ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni takidlab o'tish mumkin:

- davlat budjetini to'ldirishda yuqori salmoqqa egaligi;

- aholi bandligini ta'minlashdagi o'rnining yuqoriligi;

- monopol korxonalar tomonidan bozordagi baholarning mo'tadil ushlab turilishi natijasida inflyatsiyaning oldi olinadi;

- monopol korxonalarda yuqori zamonaviy rivojlangan texnologiyalarni olib kirishga yyetarli kapitalining mavjudligi;

- monopol korxonalar tomonidan respublikamizga olib kiriladigan zamonaviy rivojlangan texnologiyalardan foydalanish natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish hamda sifat darajasini oshirish imkoniyatlari yuqoriligi.

Demak, monopol korxonalar nafaqat salbiy, balki ko'plab ijobiy xislatlarni ham o'zida mujassam etadi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizda 31 ta tovarlar guruhi va 82 turdag'i xizmatlar bozorida 245 ta korxona monopol holatda saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi komitet tomonidan 2019-yil oktyabr oyida e'lon qilingan tabiiy monopoliya subyektlarining davlat reestrining birinchi ilovasida keltirilgan ro'yxatga asosan 137 ta xo'jalik yurituvchi subyekt monopol korxona hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida monopol korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan monopol korxonalarining YIM dagi ulushi dinamikasi (%)	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
	7,3	8,1	10,0	12,4	15,1

Keltirilgan jadvalda respublikamiz iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan monopol korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulishi 2017-yilga nisbatan 2021-yilda 7,8 foizga o'sgan. Shu yerda o'rinali bir savol tug'ilishi mumkin ya'ni, bu ijobiy natijami

yoki salbiiy? Bunga ikki tomondan qarash mumkin. Birinchisi, mahsulot dinamikasi yoki hajmi. Bu xolatda tahlil qilinayotgan yillarda monopol korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib borgan. Ikkinci tomondan esa, raqobat bozorida monopol korxonalarining mavqeい ortib borgan. Albatta, bular ijobjiy ko'rsatkich. Yuqoridagilardan kelib chiqib, monopol korxonalar iqtisodiyotimizda o'z o'rni va mavqeiga egadir. Bizning maqsadimiz iqtisodiyotimizda monopolizatsiyani rivojlantirish emas, balki ularda tashkil etilgan buxgalteriya hisobi, jumladan, daromadlar hisobini takomillashtirishdir.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyevning monopol korxonalar tanqidga oid ma'ruzasi.  
<https://review.uz/oz/>
2. Xaydarovna, Rashidova Munavvar. "Sociolinguistic competence as the main component of intercultural communicative competence." EPRA International Journal of multidisciplinary Research 7.3 (2021): 4-6.
3. Рашидова, Мунаввар Хайдаровна. "Из истории развития скаффолдинга." International conferences. Vol. 1. No. 16. 2022.
4. Xaydarovna, Rashidova Munavvar. "Sociolinguistic competence as the main component of intercultural communicative competence." EPRA International Journal of multidisciplinary Research 7.3 (2021): 4-6.
5. Xaydarovna, Rashidova Munavvar. "On linguistic competence as the component of communicative competence." EPRA International Journal of multidisciplinary Research 7.3 (2021): 165-167.
6. Nomozova, Dilnoza. "The importance of teaching vocabulary in stages." Архив Научных Публикаций JSPI (2020).
7. Маргарита Фаритвона Булычёва, Динара Талатовна Зайнутдинова К вопросу о методических рекомендациях по работе с авторской песней // Science and Education. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-metodicheskikh-rekomendatsiyah-po-rabote-s-avtorskoy-pesney> (дата обращения: 23.10.2023).
8. Xaydarovna, Rashidova Munavvar. "Problems of teaching communicative English language at the Military Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan and the ways of eliminating them." EPRA International Journal of Research and Development 5.3 (2020): 502-504.
9. Ahmedov, Doniyor A., et al. "Simulation of the effect of turning steering wheel intensity on the vehicle stability." International journal of recent technology and engineering (IJRTE) 9.2 (2020): 242-247.
10. Шереметьева, А. Г., and Р. Р. Атаева. "Вариантность как лингвистический феномен." доктор физико-математических наук, профессор,

заведующий кафедрой технологии материалов электроники Московского института стали и сплавов (2018): 217.

11. Rashidova, Munavvar Khaydarovna Techniques for improving cadets' conversational skills // ORIENSS. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/techniques-for-improving-cadets-conversational-skills> (дата обращения: 23.10.2023).

12. Латипов, Окил. "К вопросу об обучении языкам посредством выявления аналогий." Актуальное в филологии 4.4 (2021).

13. Nasimovich, Radjabov Nasir. "A simple classification of english unstressed vowel phonological oppositions." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION (2022): 60.